JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH

ORGANIZATION OF EDUCATIONAL WORK IN PENAL INSTITUTIONS

Rajabov Zafar Hamroqulovich
O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi JIED
Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish boshqarmasi xodimi
To‘rayev Qodir Tohir o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi JIED
Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish boshqarmasi xodimi

Annotatsiya: *Maqolada ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar bilan jazo muddatini o‘tash mobaynida tarbiyaviy ishlarni olib borish, ularni jamiyatga ijtimoiy moslashtirish, shuningdek, ularni foydali mehnatga va kasb hunarga jalb etish, ular tomonidan tartibbuzarlik va qayta jinoyatlarni sodir etishlarini oldini olish borasida amalga oshirilayotgan samarali ishlar hamda ushbu faoliyatni yanada takomillashtirishga doir takliflar to‘g‘risida so‘z yuritilgan.*

Abstract: *The article discusses the effective work being carried out to conduct educational work with prisoners during their sentence, their social adaptation to society, as well as their involvement in useful work and professions, and the prevention of their committing violations and re-crimes, as well as proposals for further improving this activity.*

Kalit so‘zlar: *tarbiya, kasb-hunar, ijtimoiy foydali mehnat, tarbiyaviy tadbir, profilaktika, ozodlikka tayyorlash, mahkumlarning murojaatlari.*

Keywords: *education, profession, socially useful work, educational event, prevention, preparation for release, appeals of prisoners.*

KIRISH

Inson hayotida tarbiyaning o‘rni nihoyatda muhim, chunki tarbiya shaxsning harakteri, dunyoqarashi, ma’naviyati va jamiyatdagi tutgan o‘rnini shakllantiradi. Tarbiya haqida turli adabiyotlarda bir qancha tariflar mavjud.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yig’indisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o‘tadi. [1]

Tarbiyaning eng asosiy vazifasi — insonning shaxs sifatida kamol topishiga yordam berishdir. Odamning fe’l-atvori, odatlari, xulqi, boshqalar bilan munosabatlari asosan olgan tarbiyasiga bog‘liq bo‘ladi.

Tarbiyaning yordamida inson yaxshilik va yomonlikni farqlashni, halollik, vijdonlilik, hurmat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni o‘zlashtiradi. Bu esa jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni saqlaydi.

To‘g‘ri tarbiya ko‘rgan inson jamiyat qoidalariga rioya qiladi, boshqalarning huquq va erkinliklarini hurmat qiladi, hamkorlik va birdamlikka tayyor bo‘ladi.

Tarbiya haqida gap ketganda o‘tgan asrning boshlarida xalqimizning jonkuyar ma’rifatparvari Abdulla Avloniyning bir gapi beixtiyor yodga tushadi: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”[2] Darhaqiqat, tarbiya sababli davrlar va xalqlarning kelajagi belgilanadi, u har bir jamiyatning jon tomiri, oliy qadriyati hisoblanadi. Kelajak avlod – farzandlarimizning biz orzu qilgandek bilimli, hunarli, el-yurtga foydasi tegadigan, oqil insonlar bo‘lib yetishishi, avvalo, tarbiyaga bog‘liq.[3]

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Tarbiyaviy ishlar — mahkumlarni axloqan to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish va ularni jamiyatga qayta moslashtirishning eng muhim vositalaridan biridir. Bunday ishlar mahkumlarda qonun talablariga qat’iy rioya qilish, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me’yorlariga amal qilish, mas’uliyatli bo‘lish, o‘z xatti-harakatlarini baholay olish kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarbiyaviy jarayon mahkumlarning ma’naviy dunyosini boyitish, bilim darajasini oshirish, madaniy saviyasini kengaytirish, ijtimoiy hayotga ijobiy munosabatni mustahkamlashga qaratilgan.

Jazoni ijro etish muassasalarida tarbiyaviy ishlar bir nechta asosiy yo‘nalishlarda kompleks tarzda olib boriladi.

Ma’naviy tarbiya ya’ni mahkumlarga to‘g‘ri hayotiy qadriyatlar, insonparvarlik, hurmat, vatanparvarlik kabi fazilatlarni singdirish, shuningdek, ularni o‘z xatolarini anglab, ma’naviy tiklanishga undash hamda ma’naviy-ma’rifiy suhbatlar, kitobxonlik mashg‘ulotlari, ma’naviyat darslari orqali o‘z-o‘zini tarbiyalashga yo‘naltiriladi.

Huquqiy tarbiya mahkumlarga amaldagi qonunlar, huquq va majburiyatlar to‘g‘risida bilim berish va sodir etgan jinoyat salbiy oqibatlarini to‘g‘ri tushuntirish, ularda huquqiy madaniyatni shakllantirish va kelajakda qonunga xilof xatti-harakatlardan tiyilish ko‘nikmasini hosil qilishni o‘z ichiga qamrab oladi.

Jismoniy tarbiya sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, sport mashg‘ulotlari, jismoniy chiniqish, sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish hamda stressni kamaytirish va intizomni mustahkamlashga xizmat qiluvchi jismoniy faollikni oshirishdir.

Mehnat tarbiyasi ya’ni mahkumlarni mehnatga jalb etish, ularda kasb-hunar egallash ko‘nikmalarini shakllantirish, mas’uliyatli mehnat qilish, tartib-intizomga rioya etish, halollik va mehnatsevarlikni mustahkamlashga

qaratiladi. Ozodlikka chiqqach kasb orqali jamiyatga moslashuvini osonlashtiradi.

Estetik tarbiya ya'ni mahkumlarning badiiy-estetik didini rivojlantirish, shuningdek, musiqa, rasm, adabiyot kabi badiiy faoliyatlarga jalb qilish va mahkumlarni go'zallikni his qilish, ichki dunyosini boyitish va ijobiy ruhiy holatni shakllantirishga yo'naltiriladi.

Tarbiyaviy ishlar jazoni ijro etish muassasalarida turli shakllarda tashkil etiladi. Ular mahkumlarning shaxsiy xususiyatlari, tarbiyaga bo'lgan ehtiyojlari, jamoaga moslashuv darajasi va muassasadagi umumiy maqsadlarga qarab, yakka tartibda, guruh bilan va ommaviy ko'rinishda olib boriladi.

Tadqiqot obyektimiz ya'ni mahkumlar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarni o'rganar ekanmiz avvalo mahkumlarga ta'lim berish ularni kasb hunarga o'rgatishning ahamiyati va tutgan o'rnini aytib o'tish joizdir.

Bugungi kunda jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning ta'lim olish huquqini ta'minlash, ularni jamiyatga moslashtirish va qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, davlat ta'lim standartlari asosida mahkumlarning o'rta ta'lim olishini tashkil etish va ularga zamonaviy kasb-hunarlarni o'rgatish bo'yicha kompleks tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Davlat ta'lim standartlari asosida o'rta ta'limni ta'minlash uchun mahkumlarga o'rta umumiy ta'lim olish imkoniyatini yaratish maqsadida jazoni ijro etish muassasalar huzurida maxsus umumta'lim maktabi filiallari faoliyat yuritadi.

Bu maktablarda o'quv jarayoni O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlariga mos ravishda tashkil etilgan bo'lib, o'quv predmetlari, dars soatlari, baholash tizimi, o'qituvchilar malakasi umumiy ta'lim talablari bilan bir xil asosda tashkil etilgan.

Hozirgi paytda ta'lim jarayoniga zamonaviy metodlar — raqamli darslar, ta'lim platformalaridan foydalanish, onlayn testlar, interfaol usullar joriy

etilayotgan bo‘lib, mahkumlarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirmoqda. Jumladan, mahkumlar tomonidan qiziqish bildirilgan chet tillari maxsus elektron doskalardan foydalanib, video darslar qo‘yish orqali mahkumlarning chet tilini o‘rganish amaliyoti tadbiq etilmoqda.

O‘qishni tugatgan mahkumlarga rasmiy yuridik kuchga ega bo‘lgan attestat berilishi, bu hujjat bilan ular ozodlikka chiqqach, o‘qishni davom ettirish yoki ishga joylashishlarida katta yordam beradi.

Shuningdek, mahkumlarni mehnat bozori talab qilayotgan kasb-hunarlarga yo‘naltirish esa alohida o‘rin tutadi. Hozirgi kunda iqtisodiyotda tikuvchilik, duradgorlik, elektrmontaj, payvandlash, issiqxonachilik, sartaroshlik kabi mehnat bozori talab yuqori bo‘lgan kasblar ham mahkumlarga o‘rgatilib kelinmoqda. Mahkumlar uchun shu yo‘nalishlarda maxsus kasb-hunar kurslari tashkil etilmoqda. O‘qitish jarayonida amaliy mashg‘ulotlarga katta e’tibor qaratilayotganligi esa kasb hunar ko‘nikmalarini yaxshi o‘zlashtirish va mustaqil ishlash ko‘nikmasini shakllantirishda muhim omil bo‘lmoqda.

Kasb o‘qishlarini muvaffaqiyatli yakunlagan mahkumlarga sertifikat, diplom yoki guvohnoma berilmoqda. Ushbu sertifikatlar bilan mahkumlar ozodlikka chiqgach ish topishni osonlashtirayotgani sohada xizmat qilayotgan xodimlarni mehnatining natijasi bo‘lib kelmoqda.

Tarbiyaviy ishlar bosqichma-bosqich ravishda quyidagicha amalga oshiriladi:

- ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxs jazoni ijro etish muassasasiga kelgan vaqtda uning psixologik qiyofasini, tuzalish yo‘liga o‘tishga moyilligini aniqlagan holda uni dastlabki tarzda o‘rganish;

- ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning ongini o‘zgartirish bo‘yicha tadbirlar o‘tkazish, ularda sodir etgan jinoyatidan pushaymon bo‘lish hissini uyg‘otish;

- ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning talab mavjud bo‘lgan kasblar va mutaxassisliklarga oid kasbiy ta’limini tashkil etish, o‘qishni tugallaganidan so‘ng tegishli hujjat berish hamda ularni keyinchalik ishga joylashtirish.[4]

Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar kompleks jarayon bo‘lib, u shaxsning xulq-atvorini o‘zgartirish, jinoyatchilikka qaytish ehtimolini kamaytirish va jamiyatga qayta moslashtirishga qaratilgan. Mahkumni dastlabki o‘rganish bosqichida mahkum jazoni ijro etish muassasasiga kelgan vaqtda, uning psixologik holati, xarakteri, stress darajasi, agressivlik yoki depressiya belgilari o‘rganilib, shaxsning ixtiyoriy ravishda tuzalish yo‘liga kirishga bo‘lgan moyilligi aniqlanadi. Shuningdek, shaxsning jinoyat sodir etishiga sabab bo‘lgan omillar, oilaviy ahvoli, ta’lim darajasi, kasb ko‘nikmalari, ijtimoiy tajribasi haqida ma’lumotlar to‘planib, tarbiyaviy ishlar bo‘limi psixologi va katta inspektor ijtimoiy xodim hamda boshqa sohaviy xizmat xodimlar tomonidan individual tarzda olib boriladi.

Mahkumlarni ozodlikka tayyorlash va jamiyatga moslashtirish tizimini takomillashtirish uchun quyidagilarni taklif etamiz:

1. Ozodlikka 6 oy qolgan mahkumlar uchun maxsus “Reabilitatsiya markazi” dasturini joriy etish.

2. Bandlik markazlari va tadbirkorlar bilan hamkorlikni kengaytirish — ozodlikka chiqayotgan mahkumning oldindan ishga band qilinishi.

Reabilitatsiya markazi — bu ozodlikka chiqish arafasida turgan mahkumlarni jamiyatga qayta moslashtirishga qaratilgan maxsus o‘quv, psixologik, huquqiy, kasbiy hamda ijtimoiy tayyorlov dasturi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunda biz mahkumlarni ozodlikka 3–6 oy qolganda maxsus kurslarni boshlab va quyidagi yo‘nalishlarda ishlarni tashkil etishimiz kerak:

Birinchidan, mahkumga pasport olish, ro‘yxatga turish, yordam puli olish, ish izlash, kredit yoki ijtimoiy xizmatlarga murojaat qilish tartibi o‘rgatiladi.

Ikkinchidan, ozodlikdan keyingi hayotga moslashish, stress, qo‘rquv, jamiyatga qaytishda yuzaga keladigan psixologik bosimlar haqida treninglar o‘tkaziladi.

Uchinchidan, kasb-hunarga ega bo‘lgan mahkumlar bandlik markazlari bilan bog‘lanib, ish bilan ta’minlash yuzasidan oldindan kelishuvlar qilinadi.

To‘rtinchidan, jamiyatda o‘zini tutish, muammolarni qonuniy hal qilish, muloqot madaniyati, vaqtni boshqarish, pul tejash kabi hayotiy ko‘nikmalar o‘rgatiladi.

Ushbu reabilitatsiya markazilari tajribasi sud-huquq tizimi ancha rivoj topgan Norvegiyaning jazoni ijro etish tizimida mavjud bo‘lib, “normality principle” — ya’ni «ozodlikdan mahrum qilish holatida imkon qadar tashqaridagi hayotga yaqin bo‘lishi kerak» tamoyili asosida faoliyat yuritadi.[5]

Bunda asosiy maqsad - jazodan so‘ng uni jamiyatga qaytarish jarayonini rejalashtirilgan, izchillik bilan va jamiyat hamkorligida amalga oshirish.

Norvegiyada qayta jinoyatga sodir etilishi (recidivism) darajasi boshqa ko‘plab davlatlarga nisbatan past. Bu yondoshuv jazoni qattiq jazodan ko‘ra, “rehabilitatsiya va resotsializatsiya” deb ko‘rish taraqqiyoti va jamiyat uchun foydasini ko‘rsatmoqda.

XULOSA

Yurtimizda olib borilayotgan keng islohotlar natijasida, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik va ijro tizimi, mahkumlarning huquqlari bo’yicha xalqaro standartlarni jazoni ijro etish faoliyatiga moslashtirish, mahkumlarni huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli

ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mahkumlarning ijtimoiy, psixologik va huquqiy qo‘llab-quvvatlash tizimi mustahkamlanmoqda, ularni jamiyatga qayta moslashuvini ta’minlashga qaratilgan dasturlar joriy etilmoqda. Mahkumlar uchun ta’lim va kasb-hunar o‘qitish imkoniyatlari kengaytirilib, ularning mehnat va ijodiy faoliyat orqali shaxsiy rivojlanishi rag‘batlantirilmoqda. Shuningdek, ozodlikka chiqish arafasidagi mahkumlar alohida e’tibor qaratilib, ular jamiyatda qonuniy va ijtimoiy faol hayot kechirishga tayyorlanmoqda. Bularning barchasi, xalqaro standartlar asosida, jinoyatlarni kamaytirish va jamiyat xavfsizligini oshirishga xizmat qilmoqda desak adashmagan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarbiya

2. A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. T-2004. –B.7.

3. https://www.bukhari.uz/?p=24175&lang=oz

4. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi (https://lex.uz/acts/-163629)

5. https://www.kriminalomsorgen.no/statistikk-og-publikasjoner.518716.se.html

6. O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2012-yil 29-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i (https://lex.uz/acts/-2216121)

7. https://uz.wikipedia.org